

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14427220>

UDK: 811.512.133'255.4

HIKOYALARDA INSON TABIATI VA IJTIMOY VOQEELIKLARNING TASVIRIDA IRONIYA TALQINI

(A.Qahhor, A.P.Chexov, S.Moem hikoyalari asosida)

Muhammadova Muslima Dilshodbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
mmuhammadova899@gmail.com;
ORCID ID 0009-0007-4512-6757

Gavharoy Isroiljon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, Phd dotsent
gavharoy7575@mail.ru
ORCID ID 0009-0007-9600-6747

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada muallif A.Qahhor, A.P.Chexov, S.Moem hikoyalari asosida mohirona qo'llanilgan badiiy tasvir ironiyaning talqin qilinishi ko'rib chiqilgan. Ma'lumki ironiya badiiy tasviri voqealarni yoki xarakterlarni tanqidiy yondashuv bilan, yashirin ma'no orqali tasvirlashdir. Bu vosita orqali yozuvchi jamiyatdagi muammolarni, insoniy kamchiliklarni kulgili yoki achchiq kinoya orqali ifodalab undagi muammolarni yuzaga chiqaradi. Maqolada ushbu badiiy tasvir uch adib hikoyalari misolida tadqiq etilgan va misollar bilan izohlangan. Bu badiiy tasvir orqali qahramonlar, muhit hamda ijtimoiy muammolarni mualliflar qanday yoritganini o'rganiladi. A. Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida ironiya kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lib, yozuvchi qahramonlarning ichki his-tuyg'ulari va jamiyatda yuz berayotgan voqealarni tanqidiy, nozik kulgu bilan ko'rsatadi. A.P. Chexovning "Толстый и тонкий" hikoyasida ironiya badiiy tasvir sifatida juda samarali qo'llangan bo'lib, u asar mavzusini ochish va qahramonlarning xarakterini ochib berishda katta rol o'ynaydi. Somerset Moemning "The Verger" hikoyasida irodiya insonning orzu-umidlarini, ijodiy daho va jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshilikni ochib berishda samarali qo'llangan.

Kalit so'zlar: inson tabiati, badiiy tasvir, talqin qilinishi, hikoyalar, muammolar, ijtimoiy reallik, kinoya, kamchiliklar, jamiyat, ta'sir, qarama-qarshilik.

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИРОНИИ В ОБРАЗЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПРИРОДЫ
И СОЦИАЛЬНЫХ РЕАЛЬНОСТЕЙ В ИСТОРИЯХ
(по рассказам А. Каххора, А. П. Чехова, С. Моэма)**

АННОТАЦИЯ.

В данной статье рассматривается трактовка художественного образа иронии, умело использованная на основе рассказов автора А. Каххора, А. П. Чехова, С. Моэма. Известно, что художественным воплощением иронии является описание событий или персонажей с критическим подходом, через скрытый смысл. С помощью этого инструмента писатель через смешную или горькую иронию выражает проблемы в обществе, недостатки человека, выявляет в нем проблемы. Через этот художественный образ изучается, как авторы освещают персонажей, окружающую среду и социальные проблемы. В рассказе А. Каххора «O'g'ri» (Вор) сильное влияние имеет ирония, а внутренние переживания героев и события, происходящие в обществе, писатель показывает критическим, тонким смехом. А.П. В рассказе Чехова «Толстой и Тонкий» ирония используется очень эффективно как художественный образ, она играет большую роль в раскрытии темы произведения и раскрытии характеров героев. В рассказе Сомерсета Моэма «The verger» (Служитель) ирония эффективно используется для раскрытия человеческих стремлений и конфликта между творческим гением и обществом.

Ключевые слова: *человеческая природа, художественный образ, интерпретация, сюжеты, проблемы, социальная реальность, ирония, пороки, общество, влияние, противостояние.*

**THE INTERPRETATION OF IRONY IN THE IMAGERY OF HUMAN
NATURE AND SOCIAL REALITIES IN STORIES
(based on the stories of A. Qakhkhor, A.P. Chekhov, S. Maugham)**

ABSTRACT.

In this article, the interpretation of artistic image irony, skillfully used based on the stories of the author A. Qakhhor, A.P. Chekhov, S. Maugham, is considered. It is known that the artistic representation of irony is the description of events or characters with a critical approach, through a hidden meaning. Through this tool, the writer expresses the problems in society, human shortcomings through funny or bitter irony, and brings out the problems in it. Through this artistic image, it is studied how the characters, environment and social problems are covered by the authors. In the story "O'g'ri" (Thief) by A. Qakhhor, irony has a strong influence, and the writer shows the inner

feelings of the characters and the events happening in society with a critical, subtle laugh. A.P. In Chekhov's story "Толстый и тонкий" (Thick and thin) irony is used very effectively as an artistic image, it plays a major role in revealing the theme of the work and revealing the character of the characters. In Somerset Maugham's story "The Verger", irony is effectively used to reveal human aspirations and the conflict between creative genius and society.

Key words: *human nature, artistic image, interpretation, stories, problems, social reality, irony, flaws, society, influence, opposition.*

Kirish

Adabiyot asarlarida ironiya badiiy tasviri keng qo'llanilgan bo'lib u barcha asarlarda uchraydi. Ironiya badiiy tasviri bu badiiy tasvir vositasi bo'lib, unda biror holat yoki voqea ko'rsatilganda, uning asl ma'nosi yoki natijasi kutganidan yoki kutilganidan farq qiladi. Ironiya (yun. eironeia-aynan, o'zini go'llikka solish) deb tarjima qilinadi va odatda kinoya, masxara yoki tanqidni ifodalash uchun ishlatiladi, bunda yuzaki ko'rinishdan ko'ra chuqurroq, yashirin ma'no nazarda tutiladi. Ko'chim turi sifatida ironiya so'z yoki birikmani asl ma'nosidan boshqa, teskari ma'noda qo'llash demakdir. Metafora hamda metonimiyaga ko'chimning asosiy turlari sifatida qarab, boshqa ko'chim turlarining ulardan kelib chiqqani nazarda tutilsa, ironiyani metafora tipidagi ko'chim, ya'ni "teskari o'xshatish" asosidagi ma'no ko'chish deyish mumkin. Adabiyotda ironiya – bu inson hayotining murakkabliklarini, uning ichki qarama-qarshiliklarini va atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini badiiy ifodalashda keng qo'llaniladigan san'atlardan biridir. Bu usul yozuvchilarga nafaqat komik holatlar yaratish, balki jamiyatdagi mavjud noaniqliklarni, axloqiy muammolarni va insonga xos zaifliklarni ko'rsatish imkonini beradi.

Adabiyot tahlili:

A.Qahhor, A.P.Chexov va **S.Moem** kabi mashhur yozuvchilar o'z asarlarida ironiyani inson tabiatining murakkabligini va jamiyatdagi real vaziyatlarni tasvirlash vositasi sifatida ustalik bilan ishlatganlar. Ular o'z hikoyalarida jamiyatdagi ijtimoiy tartiblar, individual istaklar va manfaatlar va insonning axloqiy qarama-qarshiliklarini

tasvirlar orqali taqdim etgan, shu bilan birga, o‘z asarlaridagi personajlar orqali ironiyaning kuchini namoyon qilganlar.

Chexov, Qahhor va Moemning hikoyalari, o‘zlarining noyob uslubi va tasvirlash vositalari bilan ironiyaning inson tabiati va ijtimoiy realitetni o‘rganishning samarali vositasi sifatida ishlatadi. Masalan, Chexovning personajlari orqali biz hayotning beqarorligini, insonning ichki ziddiyatlarini va jamoatdagi muloqotdagi xatoliklarni ko‘ramiz. Moem esa o‘z asarlarini o‘qiyotganda, insonning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy pozitsiyalaridagi nohaqliklarni kashf etadi, bu orqali uning asarlarida jamiyat va inson tabiati orasidagi murakkab bog‘liqlikni taqdim etadi. A.Qahhorning hikoyalaridagi ironiya esa ijtimoiy adolatsizlik va individual qarashlarni badiiy tasvirlash orqali, jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni yoritadi.

Abdulla qahhorning “o‘g‘ri” hikoyasida badiiy tasvir ironiya talqini:

Bu hikoya 1936-yillarda Abdulla Qahhor tomonidan yozilgan. Hikoyada **ironiya** badiiy tasvir vositasi asar ma’nosini chuqurlashtirishda va qahramonlarning ichki dunyosini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Ironiya yordamida yozuvchi ijtimoiy muammolarni, odamlardagi ikkiyuzlamachilikni, adolatsizlikni va kutilmagan xulq-atvorni taqdim etadi. Misol tariqasida hikoyaning epigrafini olsak “*Otning o‘limi itning bayrami*” bunda muallif o‘sha paytdagi sho‘ro davrdagi noinsaf odamlarga kinoya tarzida ushbu maqolani epigraf sifatida qo‘llab ularga va xalqga yetkazmoqchi bo‘lgan. Asar obrazlarga nazar solsak. Bosh qahramon Qobil bobo juda sodda va o‘qimagan oddiy bilimsiz kishi edi hamda uning kampiri huddi shunday sodda va ishonuvchan ayol bo‘lganligi sababli osongina mansabdor amaldorlar ularni oson aldab bu vaziatdan foydalanishgan.

Metodik tadqiqot

“*Qobil bobo ro‘para bo‘lganda amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi*” [A.Qahhor,1936:3] muallif bizga qanday mansabdor amaldor pulga o‘ch bo‘lganligi madaniyatsizligini ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan qo‘shimcha qilib aytganda “*bag‘baqasini osiltirib kuldi*” aynan shu yerda ironiya

badiiy tasvirini uchratishimiz mumkin bo‘lib adib bunda amaldorlar qanday hunuk holatga tushib qolganini va shu tariqa ularning ustidan kulayotgani tasvirlanadi.

“*Amin chinchalog‘ini ikkinchi bo‘g‘ingacha burniga tiqib kuldi*” [A.Qahhor,1936:4] bu yerda yozuvchi amin qanday qo‘pol munosabatda bo‘lgani o‘zidan katta odamni hurmat qilmayotgani va qay holatda ekanligida buni kinoya tariqasida bizga ya’ni o‘quvchilarga yetkazib bermoqchi bo‘lgan. Bu yerda urg‘u “*chinchalog‘ini burniga tiqib kuldi*” ga berilib biror voqeaning g‘alati va **ortiqcha** tarzda bajarilishini ko‘rsatadi “*ikkinchi bo‘g‘ingacha*” esa bu bo‘rtirish ya’ni juda qattiq kulish ma’nosini berishi mumkin.

“*Aminning tepa sochi tikka bo‘ldi*” [A.Qahhor,1936:6] ushbu gapda amin Qobil boboni ko‘rib qo‘rqib ketgan paytini ushbu kinoyaviy ibora bilan tasvirlab bermoqchi bo‘lgan, aynan gapda “*tepa sochi tikka bo‘ldi*” shu jumlasida ironiya qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin.

A.P.Chexovning “толстый и тонкий” (semiz va nozik) hikoyasida badiiy tasvir ironiya qo‘llanilishi:

Anton Pavlovich Chexovning "Толстый и тонкий" ya’ni (Semiz va nozik) hikoyasi 1898-yili chop etilib – bu yozuvchining ijtimoiy hayotdagi ijtimoiy farqlar va ikkiyuzlamachilikni yoritishga oid qisqa va o‘ziga xos asardir. Chexov bu hikoyasida ikki odam o‘rtasidagi uchrashuvni tasvirlaydi, bu uchrashuv orqali yozuvchi ijtimoiy mavqelar, insonlarning tashqi ko‘rinishi va ularning qarashlarining qanday tez o‘zgarishini ko‘rsatadi. Hikoya oddiy voqealarni eslatadi, ammo unda chuqur ijtimoiy va psixologik ma’no yashirindir. Hikoya ikkita eski tanish odam — **semiz (Толстый)** va **nozik (Тонкий)** odamlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvni tasvirlaydi. Bu ikki kishi o‘z vaqtida bir-birini yaxshi tanigan, ammo uzoq yillar davomida bir-birini ko‘rmagan. Hikoyaning voqeasi yolda uchrashgan paytda boshlanadi. **Semiz (Толстый)** kishi o‘zining ijtimoiy mavqeini yuqori tutib, orzu qilingan erkinlik va muvaffaqiyatga erishganligini tasvirlaydi. U o‘zini ko‘proq yuksak, hurmatga sazovor inson sifatida ko‘rsatishga harakat qiladi.

Nozik (Тонкий) kishi esa hech narsaga erishmagan, boshqacha qilib aytganda, past mavqega ega inson. Yana qiziq tomoni shundaki, u shunday holatga tushib qolgani sababli, **semiz** bilan uchrashganda, o'zini darhol yuksak mavqe va hurmatga sazovor odam sifatida ko'rsatish uchun hamma narsani qilishi mumkin. Chexov hikoyada **ironiyani** asosiy usul sifatida ishlatadi. Ironiya orqali yozuvchi jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va odamlarning o'zini ko'rsatishda yuksak mavqega intilishlarini tanqid qiladi. **Semiz** va **nozik** — aslida, har ikki kishi ham o'zgaruvchan va shaxsiy manfaatlariga asoslanib, o'zlari haqidagi tasavvurlarini qayta shakllantiradilar.

Metodik tadqiqot

“Тонкий вдруг побледнел, окаменел, но скоро лицо его искривилось во все стороны широчайшей улыбкой, казалось, что от лица и глаз ешо посыпались искры” (Tonkiy birdaniga oqarib ketdi, qotib qoldi, lekin tez orada uning yuzi eng keng tabassumga burildi, go'yo yuzidan va ko'zlaridan iskra to'kilib ketayotganday bo'ldi) [A.P.Chexov,1898:4] Chexov bu tasvir orqali Tonkiyning yuzidagi nozik, ammo to'liq tushuniladigan ironiya va ichki qiyinchilikni ifodalaydi. Iskra (uchqunlar) so'zi, shuningdek, shunday ma'nolarga ega bo'lishi mumkin: biror narsa kuchli yoki aniqlik bilan yuzaga keladi, odamning ichki hissiyoti yoki g'alati holatini kuchli tarzda ko'rsatadi. Bu yerda "iskra"(uchqun) so'zi ironiyaning kuchini ifodalaydi, uning ko'zlarida va yuzida yashirin tarzda chiqib, odamning ichki holatini, uning o'zini boshqalarga qanday ko'rsatish uchun qilingan harakatlarini ko'rsatadi. Yana bir jumlasida **Tonkiy** (nozik) kishi o'zining g'alati va ikkiyuzlamachi xulqi bilan ajralib turishini ko'rsatadi. *“Тонкий пожал три пальца, поклонился всем туловищем и захихикал, как китаец”* (**Tonkiy uchta barmog'ini qisdi, butun tanasi bilan egilib, xitoycha kulib yubordi**)[A.P.Chexov,1898:9]. *“Тонкий пожал три пальца”* bu yerda (uchta barmog'ini qisdi) ifodasi, ehtimol, Тонкий o'zini oddiy holatda, ya'ni rasmiy yoki shaklli bir tarzda tutishini anglatadi. Uchta barmoqni qisish — ehtimol, o'ziga xos bir salom berish usulini ifodalaydi, bu o'z navbatida Tonkiyning jamiyatdagi o'z mavqeini yoki o'zini qanday ko'rsatishga intilishidan dalolat beradi. Bu uning o'ziga xos jismoniy ifodasi va boshqa kishilarga salom berish shaklidir.

"Поклонился всем туловищем" bu soʻzlar Тонкий ning yuksak mavqe yoki hurmat koʻrsatish uchun koʻrsatilgan harakatni ifodalaydi. U butun tanasi bilan egilib, boshqa odamlarga hurmat bildirmoqda. Bu Тонкий ning ijtimoiy holatiga oʻziga xos qarashni taqdim etadi. "И захихикал, как китаец"(Xitoycha kulib yubordi) ifodasi oʻz-oʻzidan biror kutilmagan va gʻalati kulishni anglatadi. Bu, Тонкий ning oʻzini yuksak qilib koʻrsatishga urinishida qandaydir noqulaylik va sunʼiy holatni koʻrsatadi. Xitoycha kulish — bu boshqa biron bir madaniyatga taqlid qilishni bildiradi, va Chexov buni ehtimol Тонкий ning oʻzini boshqalarga taqdim etishdagi haddan tashqari sunʼiy yoki qolaversa, ikkiyuzlamachilikni taʼkidlash uchun ishlatgan.

Somerset Moemning "the verger" hikoyasida qoʻllanilgan ironiya badiiy tasviri tahlili:

Somerset Moemning "The Verger" hikoyasi 1929-yili — oʻzining **ironik** uslubi va **odamlarning yashirin niyatlarini** tahlil qilishdagi ustaligi bilan mashhur boʻlgan asarlardan biridir. Hikoya, birinchi qarashda oddiy bir xizmatkordan, **Alfred** ismli bir **vergerdan** (cherkov xodimi) boshlanadi. Ammo S.Moem, oʻzining odatiy uslubida, kichik bir hodisani ijtimoiy va psixologik tahlil orqali kengaytiradi va oxir-oqibatda oʻquvchini **kutilmagan, ironiya bilan toʻldirilgan** yakunlarga olib keladi. Moemning hikoyasidagi **ironiyaning** markazida **Alfredning ishdan boʻshatilishi** boʻlib, u ishdan boʻshatilgach, koʻpchilik odamlarga oʻxshab, oʻzining katta hayotiy yutugʻini kashf etadi. Moem bu yerda kutilmagan natijalar bilan **ironiyani** taqdim etadi, yaʼni, ishdan boʻshatilib, bilimni yoʻqotgan Alfred nihoyat oʻzining haqiqiy muvaffaqiyatini topadi.

Metodik tadqiqot

Hikoyadan misollar keltirsak masalan: "*Albert thought a moment and said, "I'm very sorry sir...I'm too old a dog to learn new tricks."* (Albert bir zum oʻylab turdi va dedi: 'Kechirasiz, janob... Men juda eski itman, yangi usullarni oʻrganish qiyin.)[S.Moem,1929:2] Bu yerda **ironiya** mavjud boʻlib "**Eski itga yangi usullarni oʻrgatish**" degan ibora odatda kishilarning yosh ulgʻaygan sayin yangi narsalarni oʻrganishga qiyinchilikka duch kelishini tasvirlaydi. Ammo, aslida, **yoshi katta**

odamlar ham o'zgarishi, yangi narsalarni o'rganishi mumkin. Demak, bu ibora bir qarashda insonlarni **o'zgarishdan cheklab qo'yadigan** stereotipni aks ettiradi, lekin bu har doim ham to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Yana bir misol qilib aytsak *“Albert replied, “But how would I know what I was signing...I can't read...I only learned how to sign my name when I went into business.” The bank manager jumped up from his chair and exclaimed, “You have accomplished all of this without knowing how to read and write! Imagine what you would be now if you had been able to!”* [S.Moem,1929:4]. Bu yerda **ironiyani** ko'rishimiz mumkin. **Albertning muvaffaqiyati va o'qish bilmasligi:** Albert **o'qish va yozish** qobiliyatisiz ko'p yillar davomida muvaffaqiyatga erishgan. Bu **ironiya** shundaki, **Albertning amaliy bilimlari** va **hayot tajribasi** unga muvaffaqiyat keltirdi, o'qish esa unga zarur bo'lmagan. **Bank menejerining taxmini:** Menejer Albertni **o'qishni bilmagan holda** muvaffaqiyatga erishgani sababli ajablanadi va uni yanada katta muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lardi deb o'ylaydi. Bu **ironiya**, chunki hikoyaning davomida **Albertning muvaffaqiyati** ko'proq **amaliy ishlar va sodda, real hayotiy qarorlar** bilan bog'liq. **O'qishning muvaffaqiyatga bo'lgan aloqasi:** Menejer **o'qish va yozishni** muvaffaqiyatning zaruriy shartlari sifatida ko'rsa-da, aslida hikoya Albertning **o'qish bilmasdan** ham muvaffaqiyat qozonish mumkinligini ko'rsatadi. Bu **ironiya** shundaki, Albertning muvaffaqiyati **o'qishsiz** ham amalga oshgan va u o'ziga kerak bo'lgan bilimlarni faqat amaliy hayot orqali o'rgangan.

Tahlil

A.Qahhor, A.P.Chexov va S.Moemning hikoyalaridagi **ironiya** badiiy tasvirning asosiy vositasi sifatida ishlatilgan. Har bir yozuvchi o'z qahramonlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni va insonlar o'rtasidagi ichki kechinmalarni ko'rsatishga harakat qilgan.

Abdulla Qahhor o'z hikoyalarida o'zbek jamiyatining sodda va bilimsiz qahramonlari, mansabdor amaldorlarning mansabfarastligi haqida ironiya orqali tanqidiy fikrlar bildirgan. Uning hikoyalari jamiyatdagi adolatsizliklarni ko'rsatib, xalqqa o'zining sodda va bilimsizligini ochib beradi.

Anton Pavlovich Chexov o'zining "**Тонкий и толстый**" hikoyasida ironiya yordamida ijtimoiy tabaqalanishning inson qadr-qimmatiga ta'sirini ko'rsatadi. "**Тонкий**" va "**толстый**" qahramonlari orqali Chexov jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va yuqori martaba oldida odamlarning o'zini qanday pastga urishini tanqidiy tarzda yoritadi.

Somerset Moem esa "**The Verger**" hikoyasida ironiya orqali ta'lim va ijtimoiy mavqening hayotdagi muvaffaqiyatning yagona belgisi emasligini ko'rsatadi. U har bir insonning o'z qobiliyatlari va ichki kuchi bilan yuksalishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Xulosa

Ushbu yozuvchilarning hikoyalarida ironiya orqali jamiyatdagi muammolar, insonlar o'rtasidagi ikkiyuzlamachilik va ijtimoiy tabaqalanish tanqid qilinadi. Har bir yozuvchi o'z asarida insonning qadr-qimmatini, ijtimoiy mavqe va o'z imkoniyatlari bilan bog'liq muammolarni ko'rsatadi.

A.Qahhor o'zbek xalqining sodda va bilimsizligini, mansabdorlarning mansabfarastligini tanqid qilgan,

A.P.Chexov jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni va maqom oldidagi ojizlikni tasvirlagan,

S.Moem esa ijtimoiy stereotiplarga qarshi turgan va insonning haqiqiy kuchi va qobiliyatini ko'rsatgan.

Bularning barchasi o'z-o'zidan, yozuvchilarning o'z davridagi jamiyatni va uning muammolarini tanqidiy va ironiya orqali yoritishga bo'lgan intilishlarini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kubasov.A.V “A.P.Chexov nasri:stilizatsiya san’ati”,Ekaterinburg,1998,-b:397.
2. Moem.S “The Verger”, “Penguin Books; reprint edition” , 1984, -b256
3. Moem.S “The complete short stories”,Garden City, N. Y,1961,-b:955
4. Qahhor.A, “Adabiyot muallimi”, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019, -b:128
5. Qahhor.A “O‘g‘ri” ,Toshkent,1936
6. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”,Toshkent “Akademnashr”,2010, -b:397
7. Qo‘shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984.
8. Richard. Kordell, “Somerset Moem, barcha fasllar uchun yozuvchi”, Indiana University Press, 1969, -b: 308.
9. Sanjar Sodiq “So‘z san’ati jozibasi”. T. “O‘zbekiston”, 1996
- 10.Вигдорчик, А. «Чехов и ирония». Вопросы литературы, 1997, № 5.
- 11.Чехов.А.Р “Тонкий и толстый”, “Осколки” jurnali, 1883, -b:128
- 12.Qizi, G. I., (Gavharoy Isroiljon qizi.) & Ulikova, M. (2021). Description of the concept of love and family relationship. Journal of Academic research in educational sciences, 2 (10), 601-606.